

mintaqaviy va milliy iqtisodiy rivojlanishga yordam berishi mumkin. Bunga kapital tannarxini pasaytirish, ayrim investitsiyalarning moliyaviy barqarorligini oshirish va kompaniyalar faoliyatini kengroq iqtisodiy maqsadlarga moslashtirish orqali erishiladi. Soliq imtiyozlarining korporativ rivojlanishga ta'siri ko'p qirralidir.

To'g'ri va oqilona belgilangan soliq imtiyozlari, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va yangi ish o'rinlarini yaratishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Biroq, soliq imtiyozlarining ortiqcha va nazoratsiz taqdim etilishi davlat budjeti va iqtisodiy barqarorlik uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, soliq imtiyozlarini samarali boshqarish, ularning ta'sirini doimiy ravishda baholash va raqobatbardoshlikni ta'minlash zarur. Faqat shu yo'l bilan, soliq imtiyozlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kumar, T. (2024). The Digital Evolution of Corporate Accounting: Trends, Challenges, and Future Prospects
2. Pomp, R. D. (1988). The Role Of State Tax Incentives In Attracting And Retainin. *Economic Development Review*, 6(2), 53.
3. Wells, Louis T., ed. Using tax incentives to compete for foreign investment: are they worth the costs?. Vol. 15. World Bank Publications, 2001
4. Traini, S., Goldman, N. C., & Lewellen, C. M. (2024). Aggressive tax planning and labor investments. *Journal of Accounting, Auditing & Finance*, 39(3), 697-725.
5. Rizwan, Umair & Gasmi, Skander. (2024). Tax Planning and Economic Activity: The Role of Tax Incentives and Corporate Investment. 10.13140/RG.2.2.26667.66089.
6. Пансков Владимир Георгиевич (2016). Налоговые льготы: теория и практика применения. Экономика. Налоги. Право, (1), 119-125.

MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASH

Soatova Nodira Boboxanovna

TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"

kafedra dotsenti, PhD

Hozirgi kunda mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi tizimli va tashkiliy muammolar mavjud. Tizimli va tashkiliy muammolar hududlarning moliyaviy imkoniyatlariga bevosita bog'liqdir. Moliyaviy imkoniyatlar hududning tabiiy sharoitlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, hududning xo'jalik tuzilish va ixtisoslashuviga va mamlakat mehnat taqsimotidagi mavqeiga va boshqa bir qator omillarga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari

javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni e'lon qilindi²⁴⁹. Farmon mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

Shu munosabat bilan quyidagilar mahalliy byudjetlar darajasida soliq-byudjet siyosatining ustuvor vazifalari etib belgilangan²⁵⁰:

1. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning aniq turlarini ularga biriktirib qo'yish orqali mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash;

2. Viloyatlar, shahar va tuman byudjetlarini subvensiyadan chiqarish, ularning yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga bo'lgan qaramligini bosqichma-bosqich qisqartirish, buning asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati organlari erkinligi va mas'uliyatini oshirish;

3. Mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish uchun tizimli asosda qo'shimcha rezervlarni aniqlab borish;

4. Deputatlik va jamoat nazoratini keng jalb qilgan holda, mahalliy byudjetlarni shakllantirishning shaffofligini va uning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

5. Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlash hamda xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o'z vaqtida, maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha ob'ektlari va infratuzilmani yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlab turishni ta'minlash ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish.


Mahalliy byudjetlar soliqli daromad bazalarini mustahkamlashning ob'ektiv zarurligi, birinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan tartibga ko'ra belgilanadi. Ikkinchidan, mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarini hamda iqtisodiyot xarajatlarini moliyalashtirishning lozimligi, mahalliy hokimliklar buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlarini amalga oshirishning zarurligi, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini

²⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2017 yil 13 dekabrda PF-5283-son Farmoni.

²⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2017 yil 13 dekabrda PF-5283-son Farmoni.

saqlab turish xarajatlarining moliyalashtirilayotganligi, mahalliy byudjetlar zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlarining, davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash xarajatlarining moliyalashtirilayotganligi, harbiy-ma'muriy sektorga yuklatilgan tadbirlarni va vazifalarni amalga oshirish xarajatlarining, shuningdek, mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlarining amalga oshirilayotganligi va boshqalar.

Byudjet daromadlarini shakllantirishda uning prinsiplariga rioya etilishi muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm). Soliqlarning undirilishi jarayonida mazkur prinsiplarga qat'iy rioya etilishi soliqlarning yig'iluvchanligini oshiradi, soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lashdan manfaatdorligini ta'minlaydi, mahalliy byudjetlar solikli daromadlari rolini oshirishning mustahkam garovi bo'lib xizmat qiladi, pirovardida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga zamin yaratadi.



1-rasm. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish prinsiplari²⁵¹

Bu jihat mahalliy byudjetlar solikli daromad bazalarini shakllantirish prinsiplariga o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Ma'lumki, hozirgi sharoitda mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida byudjetga undiriladi. Unga muvofiq, mahalliy byudjetlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari) balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim hamda ularning taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi²⁵².

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, jahon mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalariga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, xududlarni taraqqiy ettirishning muhim omili sifatida ularning mahalliy byudjetlarning solikli

²⁵¹ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁵² O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013 yil 26 dekabr. 142-modda.

daromad bazalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etib, kompleks va mutanosib rivojlantirishni ta'minlash, mintaqalarning mavjud tabiiy-xomashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish hamda aholining turmush darajasi va faravonligini izchil oshirib borish, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarining byudjet daromadlarini mustahkamlash yuzasidan olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlarni izchil davom ettirish hududlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi.

Mahalliy byudjetlar tarkibiy jihatdan viloyat, tuman va shahar byudjetlaridan iborat bo'lib, ushbu byudjet asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy ahamiyatga doir turli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish, mahalliy byudjetga qarashli muassasalar faoliyatini moliyalashtirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish kabi ishlar amalga oshiriladi. Bu kabi hayotiy muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, ularning moliyaviy asosiga borib taqaladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish prinsiplariga to'liq rioya etilishi soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshiradi, soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lashdan manfaatdorligini ta'minlaydi, mahalliy byudjetlar solikli daromadlari rolini oshirishning mustahkam garovi bo'lib xizmat qiladi, pirovardida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga zamin hozirlaydi.

YASHIL SOLIQLAR KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH DOIRASIDA CO₂ KARBONAT ANGIDRID GAZLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI

Bauyetdinov M.J.
TDIU, PhD, dotsent
Eshbanbetov E.M.
TDIU, magistrant

“Yashil soliq” tamoyili zamonaviy ta'lim tizimida barqaror rivojlanish g'oyalarini amalga oshirish uchun muhim strategik soliq hisoblanadi. Dunyo bo'ylab zaharli gazlar kelib chiqishi, axlat chiqindilari ko'payishi, iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muvozanatning buzilishi kabi muammolar globallashuv jarayonida keng miqyosda muhokama qilinmoqda. “Yashil soliq” tamoyili talabalarda ekologik tozalik haqida ong va madaniyatni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini barqarorlik tamoyillariga yo'naltirish, amaliy jihatdan ekologik toza texnologiyalarni hayotga joriy etishni nazarda tutadi.

Mazkur tamoyilning asosiy maqsadi nafaqat davlat infratuzilmasini ekologik jihatdan modernizatsiya qilish, balki ta'lim jarayonini barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirishdir. Shu jumladan, davlat miqyosida axlat chiqindilarini kamaytirish, energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishlash, yashil maydonlarni kengaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va yashil